FALSAFA

UDK: 297.5:821.512.133 **DOI: 10.56292/SJFSU/vol29_iss6/a33**

UCHINCHI RENESSANS POYDEVORINI YARATISHDA NAVOIY NAQSHBANDIYONA G‘OYALARINING AHAMIYATI

ЗНАЧЕНИЕ НАКШБАНДИЙСКИХ ИДЕЙ НАВОИ В СОЗДАНИИ ФУНДАМЕНТА ТРЕТЬЕГО РЕНЕССАНСА

THE IMPORTANCE OF NAQSHBANDI IDEAS OF NAVOI IN THE CREATION OF THE FOUNDATION OF THE THIRD RENAISSANCE

Pardaeva Marhabo Davlatovna[1]

[1]Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi,
Buxoro viloyati bo‘limi rahbari, falsafa fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya

Maqolada Alisher Navoiy asarlaridagi tasavvufiy qarashlar falsafiy jihatdan yaxlit holda tadqiq qilingan. Mutafakkirning komil inson to‘g‘risidagi qarashlarining muhim jihatlari tahlil qilingan. Allomaning diniy-tasavvufiy qarashlaridagi insonparvarlik g‘oyasi mazmun mohiyati ochib berilgan. Shuningdek, mutafakkirning komil inson to‘g‘risidagi qarashlarining falsafiy ildizlari va g‘oyaviy manbalari yoritilgan. Alisher Navoiy asarlaridagi naqshbandiyona g‘oyalarining Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdagi ahamiyati asoslab berilgan.

Аннотация

В статье целостно, философски исследуется суфийские идеи в произведениях Алишера Навои. Анализируются важные аспекты взглядов мыслителя о совершенном человеке. Раскрыта сущность представления о человечности в религиозно-суфийских воззрениях. Выделяются также философские корни и мировоззренческие истоки взглядов мыслителя о совершенном человеке. Обосновывается значение идей накшбандия в творчестве Алишера Навои в создании основ Третьего Возрождения.

Abstract

The article holistically and philosophically examines Sufi ideas in the works of Alisher Navoi. Important aspects of the thinker's views about the perfect person are analyzed. The essence of the idea of humanity in religious and Sufi views is revealed. The philosophical roots and ideological origins of the thinker's views about the perfect person are also highlighted. The significance of Naqshbandi ideas in the work of Alisher Navoi in creating the foundations of the Third Renaissance is substantiated.

Kalit so‘zlar: *odamiylik, komil inson, kategoriya, manba, axloq tarbiyasi, gumanizm.*

Ключевые слова: *человечество, совершенный человек, категория, источник, нравственное воспитание, гуманизм.*

Key words: *humanity, perfect person, category, source, moral education, humanism*.

KIRISH

Mutafakkir Navoiyning naqshbandiya tariqatiga oid g‘oyalarni tadqiq qilishining muhim xususiyati, bizning fikrimizcha, shundan iboratki, ul zot o‘zining g‘azal, ruboiy va dostonlarida insonparvarlikka oid qarashlarni, qimmatli g‘oyalarni bayon qilish bilan cheklanib qolmasdan, balki o‘zi buyuk insonparvar shoir degan nom qozondi, faqirlikda, insoniylikda boshqalarga o‘rnak bo‘ldi. U doimo oddiy xalq g‘am-tashvishiga sherik bo‘ldi, ularga homiylik qildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Sharq, xususan O‘rta Osiyo Uyg‘onish davrining muhim xususiyati insonparvarlik g‘oyasi bo‘lib, u axloqiy munosabatlar, odatlar, qarashlar va qoidalarda namoyon bo‘ladi. Shuning uchun o‘rta asrlarda axloq, etika sohasida ko‘plab darslik va qo‘llanmalar, maxsus risolalar yaratildi. O‘rta Osiyo Uyg‘onish davrida, bulardan tashqari, mutafakkirlar komil inson, ma’rifatli va odil hukmdor, fozil jamoa to‘g‘risidagi ta’limot va g‘oyalarni ko‘tarib chiqdilar. Ular Uyg‘onish davri ma’naviy-madaniy hayotining muhim xususiyati bo‘lib xizmat qildi. Bu davrni tavsiflaydigan yana bir muhim jihat – inson aqlini yuksaklikka ko‘tarish, ratsionalizm masalasi edi. Zero, inson aql zakovatiga tayanmasdan yetuk axloqqa erishish, shaxsni tarbiyalash, ilm-ma’rifat bilan shug‘ullanish qiyin edi. Bag‘rikenglik, ilm-fan va kasb-hunarni egallashga qiziqish, shirinsuxanlik, muloyimlik, insonni oliy qadriyat ekanligini e’tirof etish, islom dini va tasavvufning umuminsoniy va gumanistik jihatlarini rivojlantirish, o‘zgalar to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilish, mehr-shafqat va muruvvat ko‘rsatish – bularning hammasi Sharq Uyg‘onish davri ma’naviyatining muhim va ajralmas belgisidir. Mazkur muhim va ajralmas belgilar kategoriya sifatida kashf etilib, mutafakkirlar asarlarida tahlil etildi.

FALSAFA

Ma’lumki, odatda fan kategoriyalari va falsafa kategoriyalari farqlanadi. “Kategoriya” yunoncha so‘z bo‘lib, “ta’rif”, “mulohaza” kabi ma’nolarni anglatadi.‘Shuningdek, borliq hodisalari va unda hukm suruvchi munosabatlarning muhim tipik mazmunini namoyon etadigan o‘ta keng tushuncha hisoblanadi. Ta’kidlash joizki, falsafiy kategoriyalarning o‘ziga xos xususiyatidan biri ularning fikrlash omili va vositasi sifatida amal qilishidir. Bizningcha, odamiylikni falsafiy kategoriya sifatida talqin qilgan birinchi faylasuf – buyuk mutafakkir Alisher Navoiydir.

Navoiydan oldin yashab o‘tgan mutafakkirlar, faylasuf va adiblar garchi odamiylik xususida fikr yuritgan bo‘lsalarda, uni falsafiy kategoriya darajasiga ko‘tarmaganlar.

Alisher Navoiy asarlarini tahlil qilish natijasida aytish mumkinki, ulug‘ mutafakkir o‘z oldiga juda katta vazifani qo‘ygan. Bu ham bo‘lsa, insonni tarbiyalash masalasi. Insonning komil inson darajasiga yetishi uning odamiylik fazilatlariga bog‘liqdir. Navoiyni boshqa mutasavviflardan ajratib turadigan prinsipial jihat mavjud. Bu mutafakkirning jamiyatni tarbiyalash masalasiga global yondashuvidir. Tarixiy taraqqiyotdan ma’lumki, tarbiyada ibrat, namuna asosiy rol o‘ynaydi. Navoiy bu borada, avvalo, o‘zi ibrat bo‘ldi. Ta’kidlash joizki, mazkur ulug‘ maqsadni ro‘yobga chiqarishda tasavvuf asosiy vosita bo‘lib xizmat qildi. Shuningdek, mutafakkir ijodida o‘ziga xos talqiniga ega bo‘ldi. Aynan ana shu nuqtai nazar Navoiyning komil inson konsepsiyasi tasavvufning ikki g‘oyaviy platformasi asosida tarkib topgan deyishga asos bo‘ladi. Bulardan birinchisi “ilohiy ishq” konsepsiyasi bo‘lsa, ikkinchisi “axloq va nafs tarbiyasi” hisoblanadi. Bunda, eng avvalo, inson o‘z qalbini o‘rganishi lozim. Buning uchun ishq unga yordam beradi. Qalb odamiylik fazilatlari bilan sug‘orilgan bo‘lishi kerak. Inson qalbi ilm xazinasidir. Navoiy asarlari ishq haqidagi buyuk falsafa, qalbdagi yashirin xazina hisoblanadi. Hadisda ta’kidlanganidek, “Na osmondaman va na yerdaman, balki men bandamning qalbidaman”. Bu naqshbandiya tariqatining asosiy g‘oyasiga hamohangdir.

Mutafakkir Alisher Navoiy asarlarida Qur’on va hadislarga munosabat eng oliy darajada namoyon etilgan. Odamiylik g‘oyalari bilan sug‘orilgan asarlari mazmunida Qur’oni karim va Hadisi sharif asosiy o‘rin egallaydi. Jumladan, hadislarda “Hech kim hech kimdan ortiq emas”, “O‘zingga nazar qil. Sen qizil yoki qora tanli odamlardan afzal emassan, balki Allohdan qo‘rqish va taqvo bilangina fazilating ziyoda bo‘lishi mumkin” deyiladi. Shuningdek, Navoiy ham hadis mazmuniga mos ravishda podshoh oddiy odamlarni kamsitmasligi lozim deb, “Hayrat ul-abror”da “Ermas alar tufrog‘u sen nuri pok” deya ta’kidlaydi.

Ta’kidlash joizki, Navoiyning odamiylik g‘oyasi bilan sug‘orilgan fikr va mulohazalari Abulqosim Firdavsiy, Yusuf Xos Hojib, Nizomiy Ganjaviy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va boshqa mutafakkirlarning fikrlariga hamohangdir. Navoiy o‘zining asarlarida mutafakkirlar izidan borib, ularning fikrlarini rivojlantirgan, shuningdek ayrimlarini ijod namunalarida takrorlagan. Buni ayb deb hisoblamagan. Biroq ulardan farqli o‘laroq, Alisher Navoiy uchun eng asosiy manba Qur’oni karim va Hadisi sharif hisoblangan. Jumladan, “O‘zingiz sevgan narsani boshqalarga ham ravo ko‘ring” [5] degan hadis bor. Bu hadis mazmuni mutafakkirning “Saddi Iskandariy” dostonida Iskandar nomidan bayon etilgan:

Xaloyiqqa ko‘rma, qilib benavo,
O‘zungga ravo ko‘rmaganni ravo! [1]

Navoiy asarlarida Allohni tanish yo‘li ham ko‘rsatib berilgan. Ya’ni inson o‘z hayoti davomida cheksiz qiyinchiliklarga duch keladi, mashaqqat chekadi. Shu bilan hayot yo‘lini o‘tib, tajriba to‘playdi va komillikka erishadi. Bunda ishq asosiy o‘rin egallaydi. Navoiy nazarida ishq faqatgina Allohga bo‘lgan cheksiz muhabbat emas, balki bilim va yuksak fazilatlarga bo‘lgan intilish zavqidir. Mutafakkir talqin etgan ishq ob’ektini hayot falsafasi tashkil qiladi. Inson faqatgina ma’naviy barkamollik natijasida chin ma’nodagi insonlik mohiyatini kasb etadi. Shu tariqa u Allohning sevimli bandasiga aylanadi. Komillik bu ezgu axloq, yuksak ma’naviyat, ma’rifat tushunchalarini, boshqacha qilib aytganda, odamiylik g‘oyalarini ifoda etadi.

Odamiylik, komil inson masalalari islom dini va tasavvufda markaziy o‘rinni egallaydi. Inson qanday yaratilgan, uning bu dunyoga kelishdan maqsadi nima? U kamolotga erishish va komil inson darajasiga yetish uchun qanday xayrli, savob ishlar bilan mashg‘ul bo‘lishi lozim? Ana shunga o‘xshash savollar islom dini namoyandalari, ulamo va fuzalo, avliyo va anbiyo, mutasavvif, mashoyixlarning e’tiborida bo‘ldi. Darhaqiqat komil inson deganda, islom dini peshvolari ham, mutasavviflar ham har tomondan yetuk, yaxshi axloq bilan bezanib poklangan, nuqsonlardan xoli, nafsini tiya olgan, sabr-qanoatli, boylik va mol-mulkka hirs qo‘ymagan, boshqacha qilib aytganda,

odamiylik fazilatlariga ega shaxsni tushunganlar. “Komil inson, - N.Komilovning aytishicha, - bir ideal, barcha dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan, ruhi Mutlaq ruhga tutash, fayzu karomatdan serob, siyratu surati saranjom, qalbi ezgu tuyg‘ularga limmo-lim pokiza zot” [6].

Tasavvuf ta’limotida inson va uning mohiyati, yashashdan maqsadi, dunyoviy va ilohiy, zohiriy va botiniy masalalar, komil inson va kamolotga yetishish yo‘llari, unga yetgan ulug‘ zotlar - avliyo va anbiyolar, mashoyix va pirlarning ibratli hayoti, inson faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab masalalar to‘g‘risida fikr yuritiladi. Darhaqiqat, tasavvuf va turli tariqat vakillari asrlar mobaynida zamonlar, shart-sharoitlar o‘zgarishiga qaramay inson va uning ma’naviy kamoloti uchun qayg‘urdilar, boylikka ruju qo‘yish, insoniylikni pastga urish, nafsga berilish, odamiylikka zid hatti-harakatlar, axloqsizlik va tuban illatlarga qarshi kurashdilar. Ular inson kamolotiga halaqit beruvchi eng yomon nuqson nafsni tiya olmaslik deb bildilar. “Tasavvufchilar, - deb ta’kidlaydi professor N.Komilov, - inson tabiatidagi salbiy kuchlarni umumiy nom bilan “nafs” yoki “nafsi ammora” deb ataydilar va unga qarshi urush e’lon qildilar. Mol dunyo to‘plash, nafs ehtiyojiga qarab yurish, hirsu havas qat’iy qoralanadi, insonni (demakki insoniyatni ham) noqislik va falokatlardan qutqarishning birdan-bir yo‘li – nafsni o‘ldirib, qanoat bilan halol yashash, ruh – irodani chiniqtira borib, insonda insoniylikni, ya’ni ilohiylikni tantana ettirish zarur, deb targ‘ib qilindi” [7]. Nafsga berilganlar mutasavviflar tomonidan kattiq qoralanadi, u insonni tamagirlik, xudbinlik, faqat o‘z farovonligini o‘ylashga, harom-harish ishlar qilishga, fahsh ishlar, makkorlik, firibgarlik sari yetaklaydi. Shuning uchun nafsga berilishni tasavvuf namoyandalari butun noqislik, nuqson va yomonliklarning majmui deb hisoblaydilar. Faqat o‘z nafsini jilovlagan solik komil inson darajasiga ko‘tarilishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tasavvuf falsafasida komil inson masalasining asosini vahdati vujud ta’limoti tashkil etadi. Xudo, borliq va insonning birligi, insonning Alloh bilan birlashuvi, ontologik va gnoseologik masalalar vahdati vujud ta’limoti asosida talqin qilinadi. U, olimlarning fikricha, panteizm bilan o‘xshashligiga qaramay, bir-biridan birmuncha farq qiladi. Panteizmda Alloh bilan ashyolar bir deb qabul qilinsa, vahdati vujudda bunday emas, uning zot jihatidan alohida yagona borliq ekanligi, undan tashqarida bo‘lgan barcha mavjudot esa, Tangrining ism va sifatlarining tajallisidan iborat bo‘lib, zotiy borliqlari yo‘qdir. Vahdati vujud aqliy dalil bilan emas, qalbiy mushohada, zavq va hol bilan erishilgan bir “irfon” bo‘lib, aqliy nazariya emas, panteizm esa, aql mahsuli bo‘lgan falsafadir. Vahdati vujudga erishmoqning yo‘li sayru suluk natijasi “fano” martabasiga erishmoq orqali amalga oshadi.

Vahdati vujud ta’limotini asoslagan mutasavviflar Muhammad G‘azzoliy (1058-1112), Jaloliddin Rumiy (1207-1273), Ibn al-Arabiylardir. Ular butun borliqni, yaratilgan ashyolarni Allohning soyasi va nuri, deb talqin qildilar. Ayniqsa, bu ta’limotni asoslashda Ibn al-Arabiyning xizmatlari kattadir. Arabiy vahdat (birlik) va kasrat (xilma-xillik), qadim (ibtido) va hodis (yaratilgan), zohir va botin, avval va oxir kabi qarama-qarshi tushunchalarni yagona borliqning ikki tomoni, deb hisoblaydi [4]. U borliq va insonning birligini, hamma narsa va ashyolar sababchisi Alloh ekanligini uqtiradi.

Turk olimi Usmon Turarning aytishiga qaraganda, olam “Alloh sifatlarining tajalliysidan iborat bo‘lib, uning borlig‘i Allohning borlig‘i bilangina qoimdir. Olamning borlig‘i soyadangina iborat. Ya’ni, olam nisbiy borliq bo‘lib, vahm va xayoldan iborat. Soya esa o‘zining sababchisi bo‘lgan borliqning vujudidan boshqa bir vujudga ega emas. Shu vajhdan mutasavviflar ashyoning his va aqlimizga nisbatan ko‘rinib turgan borlig‘iga “soya borliq” deganlarki, bu vahmiy va xayoliy borliq demakdir” [8]. Darhaqiqat, dunyodagi butun mavjud narsalar Allohning in’ikosidan iborat. Lekin bu birlikni aql yoki hissiy a’zolar orqali idrok qilib bo‘lmaydi. Orif yoki so‘fiyning qalbida Allohdan boshqa narsa bo‘lmasligi kerak. Alloh bilan inson o‘rtasida farq yo‘qolib, ular bir-biriga o‘xshaganda, u holda undan boshqa hech nima qolmaydi.

Tasavvufda komil inson – kishilarning ideali, orzu-umidlari bo‘lib, bunday shaxs o‘zida butun insoniy fazilatlar, yaxshiliklar, xulq-odob bilan bezangan, axloqi pok, dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan, nafsini tiygan, boylik va mol-mulkka qiziqmaydigan, halol mehnati bilan kun kechiruvchi, g‘arib va muhtojlardan yordamini ayamaydigan shaxs hisoblanadi.

Alisher Navoiy asarlarini o‘rganish orqali biz mutafakkirni millatning ma’naviy murabbiysi ekanligiga yana bir karra ishonch hosil qildik. Buning sababi shundaki, birinchi va ikkinchi Renessans davri shoirlarining bizgacha yetib kelgan devonlaridagi g‘azallar asosan ishqiy yoki irfoniy mavzularda bo‘lib, orasida bir yoki ikki bayt ijtimoiy axloqiy mavzularda bo‘lgan. Buyuk

mutafakkir Navoiyning asarlari esa, boshidan oxirigacha juda katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadigan nazariy masalalarga bag‘ishlangan.

Vatanga muhabbat masalasi ham odamiylik fazilati nuqtai nazaridan belgilanishini mutafakkir ijodida ko‘rish mumkin. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, Navoiy ijodida ushbu g‘oyalar muqaddas diniy kitoblar mazmuniga hamohangdir. Jumladan, Qur’oni karimning 43-surasi “Zuhruf” surasi, shuningdek hadisda “Bo‘linib ketishdan saqlaninglar”, “Kimki qo‘pchilikdan ajralsa, do‘zaxga yo‘l olgan bo‘ladi” deyilgan. Navoiy ham boshqa donishmandlar singari inoq yashash g‘oyasini qo‘llab-quvvatlagan.

Mutafakkir ijodida odobsizlikka qarshi kurash masalasi ham bor. “Majolis un-nafois” tazkirasida hirotlik yosh shoirning odobsizligini qoralaydi. Yosh va ijoddan o‘zidan katta bo‘lgan samarqandlik shoir va arbob Ahmad Hojibekning “Vafoyi” taxallusini o‘ziga taxallus qilib olib, she’rlar yozganini odamiylikdan chetga chiqqan shoir deb qoralaydi. Taxallusini o‘zgartirishni talab qiladi. Shundan keyin hirotlik yosh shoir taxallusini “Zamoniy” deb o‘zgartirgan ekan. Kattalarni ulug‘lash, ularni hurmat qilish, mehr-oqibatli bo‘lish Navoiy ijodida odamiylik fazilati sifatida ulug‘lanadi: “Ahmad Hojibek “Vafoyi” taxallus qilur va she’ri mashg‘urdur va devoni ham bor. Munosib ermas erdikim, ulug‘ kishiga bejihat taxallusda sherik bo‘lg‘ay” [2].

Ta’kidlash joizki, Navoiyning asarlari umuminsoniy qadriyatlar ruhi bilan sug‘orilgan nodir manbadir. Umuminsoniy qadriyatlar negizini odamiylik g‘oyasi tashkil etadi. Mazkur asarlarning boshidan oxiriga qadar inson qadri ulug‘langan. Hozirgi kunda inson manfaati hamma narsadan ustun degan tamoyilning ma’naviy asoslarini aynan shu asarlar mag‘zidan topish mushkul emas.

Alisher Navoiy hazratlarining odamiylik borasidagi qarashlari badiiy, falsafiy, pandnoma shakllarida ifoda etilgan. Ta’kidlash joizki, mutafakkir asarlarida odamiylik “futuvvat” ma’nosida ham ishlatilgan. Futuvvat – tasavvufning asosiy o‘zak tushunchasi. Tasavvuf inson kamoloti xususidagi ta’limot. Futuvvatning bu ta’limotga ta’siri juda kattadir. Husayn Voiz Koshifiy ta’kidlaganidek, “Istiloh sifatida futuvvat deb omma orasida yaxshi sifatlar va namunaviy axloq bilan mashhur bo‘lishni aytadilar, shu vajdankim, bunday odam hamisha axloqi bilan o‘z kasbdoshlari, toifa-tabaqasi orasida mumtoz bo‘ladi. Xos ta’rif yuzasidan esa, futuvvat insoniy fitrat nuri nafsoniy belgilar zulmatiga qarshi qo‘yilishi, shu zulmatni yorib o‘tishidan iboratdir” [9]. Navoiy asarlarida futuvvat g‘oyasi chuqur mazmun va go‘zal badiiy shakl uyg‘unligida namoyon etilgan. “Hayrat ul-abror”, “Layli va Majnun” dostonlarida futuvvatning inson kamolotidagi o‘rni tadqiq qilingan. “Nasoyim ul-muhabbat”da mutasavvuflar kamolotida futuvvatning o‘rniga e’tibor qaratilgan. Tasavvuf vakillarining futuvvat xususidagi fikrlaridan iqtiboslar keltiradi. Bu esa, odamiylik Navoiyning doimiy diqqat e’tiboridan joy olganligiga dalolatdir. Jumladan, “Favoyid ul-kibar” devonida mutafakkir futuvvatga qisqa, lo‘nda ta’rif beradi:

Muruvvat barcha bermakdur, yemak yo‘q,
Futuvvat barcha qilmakdur, demak yo‘q [3].

Ta’kidlash joizki, Navoiy asarlarida futuvvat ko‘p hollarda muruvvat bilan birgalikda talqin etiladi. Demak, muruvvat tuyg‘usi futuvvatning negizini tashkil etadi. Aynan mazkur xulosa Husayn Voiz Koshifiyda ham uchraydi: “Futuvvatning uch martabasi bor: avval saxovat, ya’ni bor narsani hech kimdan qizg‘anmaslik. Ikkinchisi – safo, ya’ni qalbni kibru havo, gina-qudrat, qasd-g‘azabdan pokiza, pok tutish. Uchinchisi – vafo, ya’ni hamma vaqt xalq xizmatida bo‘lish” [10].

XULOSA

Navoiy odamiylik fazilatlariga ega insonlarni yetuk, komil inson sifatida baholaydi. Insonni axloqiy yo‘nalishda kashf qilib, “olam ichidagi olam”, Alloh o‘z aksini tomosha qiladigan oyna “mir’ot” deya ulug‘laydi. Biroq, u insonning cheksiz imkoniyatlari, aql, qobiliyatlarini ta’riflash bilan birga haqiqiy inson darajasiga yetmasdan odamiylikdan chetga chiqayotganlarini qoralaydi. Bunday kishilarga adolatsiz podshohlarni, ikkiyuzlamachi din peshvolarini, zolim amaldorlarni, ochko‘z boylarni, o‘z ilmiga amal qilmayotgan olimlarni, poraxo‘r qozilarni kiritadi. Mutafakkir fikricha, inson axloqi, odobi bilan odam. Kishida yaxshilik qilish imkoniyatlari cheksiz bo‘lganidek, yomonlik qilishi uchun ham sharoitlar ko‘p deb uqtiradi [11-12]. O‘zining odamiyligini, jamiyat oldidagi odamiylik burchini anglagandagina har qanday yomonliklardan saqlanadi deydi.

Demak, Navoiy ijodida odamiylik kategoriya sifatida talqin etiladi. “Hayrat ul-abror”da ta’kidlanganidek, odamiylik insonning o‘z burchi va vazifasini to‘g‘ri anglab yetishida, har qanday muammolarni adolatli hal etishida, moddiy boyliklar taqsimotida odil, halol bo‘lishida, o‘z mehnati

bilan kun kechirishi va o‘zgalar mehnatini qadrlay bilishida, boshiga mushkulot tushganida sabrli bo‘lishida, ilmga intilishida namoyon bo‘ladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Алишер Навоий. Хамса. 839-бет. Хамсат ул-мутахаййирин. МАТ.Т.15.–Тошкент: Фан, 1999. 200-бет
2. Алишер Навоий. Тўла асарлар тўплами. 12-том. –Т. O‘zbekiston, :2011. 98-бет
3. Алишер Навоий. Фавойил ул-кибар. –ТАТ, 10 жилдлик. 4-жилд. –Т. O‘zbekiston, 2011. 741-бет.
4. Ибн ал-Арабий. Фусус ал-ҳикам. –Байрут: 1946. –Б. 335.
5. Ахлоқ-одобга оид ҳадис намуналари. –Тошкент: Фан, 1990. 16-18 бетлар.
6. Комилов Н. Тасаввуф. –Тошкент: Movarounnahr-O‘zbekiston, 2009. –Б. 130.
7. Комилов Н. Тасаввуф. 1-китоб. –Тошкент: Ёзувчи, 1996. –Б. 153.
8. Усмон Турар. Тасаввуф тарихи. –Тошкент: Истиқлол, 1999. –Б. 152.
9. Кошифий Ҳусайн Воиз. Футувватномаи султоний ёхуд жавонмардлик тариқати (Таржимон: Н.Комилов).–Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти,: 2011, 16-бет.
10.Пардаева, М. Д. (2021). ЎТМИШИ ШАРАФЛИ, КЕЛАЖАГИ БУЮК ХАЛҚ МАЪНАВИЯТИДА ҲАЗРАТ АЛИШЕР НАВОИЙ ҚАРАШЛАРИНИНГ ЎРНИ. ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, 4(3).
1. Jurakulovich, S. J. (2022). AGAINST IGNORANCE-FIGHTING WITH ENLIGHTENMENT THE MAIN CRITERIA IN IMPROVING HUMAN VALUE. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, *3*(10), 1160-1164.
12.Pardaeva, M. D. (2020). THE ROLE OF THE JADID'S THINKING VIEWS IN THE FIGHT AGAINST ENLIGHTENMENT AGAINST IGNORANCE. Ўтмишга назар журнали, 10(3).
13.Пардаева, М. Д. (2018). Использование средств народной педагогики в воспитании толерантности у молодежи. Проблемы педагогики, (6 (38)).